

5-MAVZU:KASB-HUNAR TA'LIMINING TASHKILIY SHAKLLARI

Reja:



1. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning asosiy shakllari
2. Ishlab chiqarish ta’limini tashkil qilishning asosiy shakllari
3. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, O‘rta maxsus kasb-hunar kollej ta’limini xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini o‘qitish
4. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida masofaviy o‘qitish
5. Ishlab chiqarish amaliyoti: maqsad va vazifalari, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o‘tkazish, ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish

Kasb-hunar kollej o‘quvchilarining o‘quv va ishlab chiqarish faoliyati turli tashkiliy shakllarda kechadi. *Kasb-hunar ta’limining tashkiliy shakllari* deganda o‘quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun o‘quvchilar jamoasini tashkil etish yo‘llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek o‘quv mashg‘ulotlarining qurilish tarkibi tushuniladi.

Kasb-hunar ta’limini u yoki bu shaklini tanlashda, o‘quvchilarni kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko‘rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog‘liq.

Nazariy mashg‘ulotlar davomida dastur mavzularining mazmuni yoritiladi, kasbiy ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifasi amalga oshiriladi.

Bundan tashqari nazariy va amaliy mashg‘ulotlar va ishlab chiqarish ta’limini tashkil qilishning asosiy shakllarini ochib berish, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, o‘rta maxsus, kasb-hunar kollej ta’limini xo‘jalik yuritishning yangi shakllarni o‘qitish va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida masofaviy o‘qitishni ishlab chiqishni, ishlab chiqarish amaliyotining maqsad va vazifalari, tashkil qilish, o‘tkazish, rahbarlik qilish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishni, jamoaviy, guruhli, yakka tartibdagi shakllardan foydalangan holda dars ishlanmalarini tayyorlashni talab etadi, Ana shu sababli ***kasb-hunar ta’limining tashkiliy shakllarini ishlab chiqish va boshqarish modelini*** loyihalash zarur.



Nazariy mashg‘ulotlar deganda -

mashg‘ulotning ham jamoa, ham individual (yakka tartibda) turini o‘z ichiga olgan, kasb ta’limi o‘qituvchisining rahbarligida o‘quv materialini faol, to‘g‘ri va ongli o‘zlashtirilishini ko‘zda tutgan o‘quv-mehnat faoliyatining aniq tashkil qilinishi tushuniladi.

Amaliy laboratoriya ishlari

o‘quvchilarga faqat turli xil uskunalar, asboblar, moslamalar bilan ishlashini o‘rgatmay, balki o‘lchovlar, kuzatishlar natijalarini ishlab chiqishni o‘rganish hamda to‘g‘ri ilmiy xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkonini beradi.

Kasb-hunar ta'limi darsi - o‘quvchilarning barcha guruhlarini bir xil sharoitda, yagona didaktik vazifani bajarilishini ta’minlaydigan tashkiliy shaklidir (masalan, o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonalari, o‘quv-ishlab chiqarish sexlari, o‘quv xo‘jaliklari va x..k;).

Ishlab chiqarish jarayoni shakllari

didaktik maqsadning aniqligi

ta'lim va tarbiya vazifalarining
birligi

o'quv materialini to'g'ri
tanlash

o'qitish modellarini maqsadga
muvofiq tanlash

o'quvchilarning mustaqilligi

darsning tashkiliy aniqligi

o'quvchilar ishida xavfsizlikni
ta'minlashni o'z ichiga oladi

Ishlab chiqarish jarayoni shakllari – didaktik maqsadning aniqligi, ta’lim va tarbiya vazifalarining birligi, o‘quv materialini to‘g‘ri tanlash, o‘qitish modellarini maqsadga muvofiq tanlash, o‘quvchilarning mustaqilligi, darsning tashkiliy aniqligi va o‘quvchilar ishida xavfsizlikni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Ekskursiya - kasb-hunar ta’limi tashkil etishning shunday shakliki, u orqali o‘quvchilar bevosita ishlab chiqarish sharoitida jihozlar bilan tanishib, texnologik va mehnat jarayonlarini tashkil etishni kuzatib boradi.

Masofaviy ta’lim - maxsus o‘qitish vositalari yordamida o‘qituvchi bilan bog‘lanish, shaxsiy jadval bilan o‘zi xohlagan joyda o‘qishi, o‘z ustida intensiv, mustaqil ishlashi lozim bo‘lgan, maqsadga yo‘naltirilgan bilim olish turi.

”**Model**” tushunchasi ilm-fanning ko‘p sohalarida qo‘llaniladi. **Model** - sxema, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar va formulalar ko‘rinshida sun’iy hosil qilingan ob’ekt bo‘lib, u tadqiq qilinayotgan ob’ektga o‘xshash bo‘ladi, uning tuzilishini, xususiyatlarini, ob’ektning elementlari orasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlarni sodda va tushunarli tarzda aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.** Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta’limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O‘qituvchi, 1992.-320 b.
- 2.** Boltaboev S.A., Abdullaeva K-M. kasb ta’limi metodikasi. - Toshkent., TDPU, 2001.-104 6.
- 3.** Golish L.V. Ta’lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. - Toshkent., UMKX.TRI, 2002.-44 b.
- 4.** Skakun V.A. Ishlab chiqarish ta’limi usgozi uchun qo‘llanma. – Toshkent., O‘qituvchi, 1992.-208 b.
- 5.** Baholash metodlari. / Nishonov A., Haydarov B., Nuridinov B. va boshqalar. - Toshkent., UMKXTRI, 2003.-156 b.



E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT